

## TIJORAT BANKLARIDA KREDIT SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH

Madaminov Bunyod

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklari hamda ularda kredit siyosatining rivojlanishi hamda uning ahamiyati haqida soʻz boradi.*

**Kalit soʻzlar:** *Bank, kredit, tijorat banki, samaradorlik, kredit siyosati, risk, rivojlanish.*

Tijorat banklari har qanday mamlakatning moliyaviy tizimida muhim oʻrin tutib, iqtisodiy oʻsish va rivojlanishni ragʻbatlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular jamgʻarmalarni jalb qilish, moliyaviy resurslarni taqsimlash va xoʻjalik yurituvchi subyektlarga kredit ajratish orqali iqtisodiy jarayonlarni qoʻllab-quvvatlaydi. Shu boisdan, tijorat banklarining kredit siyosati ularning barqarorligi va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri boʻlib, iqtisodiyotning turli tarmoqlari rivojiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Bugungi kunda kredit siyosatini takomillashtirish muammosi tijorat banklari uchun dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Banklar oʻz kredit portfelini optimallashtirish, risklarni minimallashtirish va kredit ajratish jarayonini soddalashtirish orqali mijozlar talabiga moslashishga intilmoqda. Shu bilan birga, global moliyaviy inqirozlar, raqamli transformatsiya va iqtisodiy muhitning oʻzgaruvchanligi banklarning kredit siyosatini yangicha yondashuvlar asosida shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Kreditlash bank ishining oʻzagi boʻlib, uning sifatiga qarab bankning faoliyati toʻgʻrisida xulosa chiqarishi mumkin. Bankni kredit siyosati- kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati bilan xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir koʻrsatmalar bilan taʼminlovchi hujjatdir.

Oʻzbekiston tijorat banklarida kredit siyosatini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Tadqiqotda bank tizimining joriy holati tahlil qilinib, kreditlashdagi muammolar – risklarni boshqarishning yetarli emasligi, raqamlashtirishning sekin surʼatlari va davlat ishtirokining yuqori darajasi koʻrib chiqiladi. Ishning maqsadi – risklarni minimallashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, korporativ boshqaruvni yaxshilash va xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish orqali kredit siyosatini optimallashtirish yoʻllarini ishlab chiqish.

Tadqiqot statistik tahlil, taqqoslash va xalqaro amaliyotga asoslanadi. Natijalar bank sektorining barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi. Oʻzbekiston bank tizimi ikki darajali tuzilishga ega: yuqori darajada Markaziy bank, quyi darajada esa tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar faoliyat yuritadi. Tizimning rivojlanishi mustaqillik yillarida (1991-yildan boshlab) sezilarli oʻzgarishlarga duch keldi: 1991-1992 yillar: Mustaqillikning dastlabki yillarida “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilinib, ikki darajali bank tizimi huquqiy asosda shakllandi. Oʻzbekiston SSR Davlat banki Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga aylandi. Bu davrda pul muomalasini tartibga solish, toʻlov tizimini shakllantirish va ixtisoslashgan tijorat banklarini tashkil etish asosiy vazifa boʻldi. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki bank tizimining asosiy tartibga soluvchi organi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Pul-kredit siyosatini yuritish: Inflyatsiyani ushlab turish, milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va likvidlikni tartibga solish.
- Tijorat banklarini nazorat qilish: Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiy normativlar (kapital yetariligi, likvidlik koeffitsienti) belgilaydi.
- To'lov tizimini boshqarish: Banklararo to'lovlar va chakana to'lovlar tizimini rivojlantiradi.
- Valyuta siyosati:

Eksportni rag'batlantirish va oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish Markaziy bank Bazel qo'mitasi standartlariga muvofiq makroprudensial siyosat olib boradi va tizimli ahamiyatga ega banklarni aniqlaydi. 2024-yil holatiga ko'ra, bank tizimining likvidlik ko'rsatkichlari yetarli darajada: qisqa muddatli likvidlik koeffitsiyenti (LCR) 167%, uzoq muddatli likvidlik koeffitsiyenti (NSFR) 113% ni tashkil etadi.

Har qanday tijorat bankining kredit siyosatini asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: kredit oqimlari hajmining o'sishini ta'minlash, riski yuqori bo'lgan operatsiyalarni odilona diversifikatsiyasini, o'rtava uzoq muddatli kredit qo'yilmalar hajmining ko'paytirilishini va ularning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Kredit siyosati bankning o'ziga xos "kredit manbai"ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda bankning huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat'iy kredit siyosati asosida berilgan bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samaraki ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosatida bank tomonidan berilgan kreditlar toifasi va turlarini aniqlash va belgilashlari lozim. Masalan, kreditlash sohalari bo'yicha tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qo'yilganlarini moliyalashtirish va boshqa tarmoqlarga kredit berish, kredit turlari bo'yicha: "kredit liniyalarini ochib va ochmay" kreditlash yoki kreditlashning boshqa usulini qo'llashni belgilab berishi mumkin. Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank boshqaruvi va Kengashini tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishlari lozim.

Kredit siyosatiga qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilish kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim. Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim, kredit xodimlari portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatni xabardor qilishi lozim. Qarzdor yoki garovchining ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir. Tijorat banklarini kredit siyosatida kreditlarning daromadlilikini oshirish va ularning risk darajasini boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Kreditlarning daromadlilikini oshirishi va ularning risk darajasini boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Kreditlarning daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni prognoz darajalari kredit siyosatida aniq ko'rsatilishi kerak.

Rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklarining kredit siyosati iqtisodiy sikllarga bog'liq holda doimiy ravishda takomillashtirib boriladi. Masalan, AQSh va Yevropa banklari kredit ajratishda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan kredit reyting tizimlaridan foydalanadi. Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda esa raqamli kreditlash texnologiyalari keng joriy etilib, bank xizmatlarini soddalashtirish va mijozlarga

tezkor xizmat ko'rsatish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining kredit siyosatini takomillashtirish quyidagi omillar tufayli dolzarb hisoblanadi. Kredit risklarining oshishi banklar uchun katta muammoga aylangan. So'nggi yillarda banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning hajmi oshib borayotganiga qaramay, kredit sifatini ta'minlash hamda kechiktirilgan to'lovlarni kamaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa banklarning likvidligi va daromadliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti izchil diversifikatsiya qilinmagan. Ayrim tarmoqlar ortiqcha kreditlash natijasida haddan tashqari qarz yuklamasiga ega bo'lishi mumkin, bu esa iqtisodiy barqarorlikka xavf tug'diradi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes uchun kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tijorat banklarida kredit siyosatini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit siyosatining optimal yuritilishi banklarning daromadliligini oshirish, mijozlarga qulay kredit shartlarini taqdim etish va risklarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Hozirgi sharoitda kredit siyosatini takomillashtirish uchun risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, kredit shartlarini moslashuvchan qilish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur. Bu esa tijorat banklariga iqtisodiy rivojlanishda faol ishtirok etish va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isakov J.Y. (2023). Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yo'llari. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(10), 400–404
2. Otamurodov H.H. (2019). Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent.
3. Gulyamova, N. F., & Janaydarova, K. A. (2024). Tijorat banklarda FinTechning rivojlanish tendensiyasi. ResearchGate.
4. Rasulov T., Ziyodilloev X. (2024). Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish.
5. Д.Шим и Д.Сигел. Финансовый менеджмент. М.:1996
6. Beck, T., Degryse, H., De Haas, R., & Van Horen, N. (2018). When arm's length is too far: Relationship banking over the credit cycle.